

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. TAR.78.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

DULANOV OTABEK YULDASHEVICH

**SURXON VOHASI YUZ (JUZ) LARINING HUDUDIIY JOYLASHUVI VA
ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI (XVIII ASR VA XX ASR BOSHLARI)**

07.00.07. – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Dulanov Otabek Yuldashevich

Surxon vohasi yuz (juz) larining hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlari (XVIII asr va XX asr boshlari).....3

Дуланов Отабек Юлдашевич

Территориальное расположение жузов Сурханского оазиса и их этнокультурные особенности (начало XVIII и XX веков.....23

Dulanov Otabek Yuldashevich

Territorial location and ethno-cultural characteristics of the yuz (juz) tribe in Surkhan Oasis (during end of XVIII and early XX centuries.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. TAR.78.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

DULANOV OTABEK YULDASHEVICH

**SURXON VOHASI YUZ (JUZ) LARINING HUDUDIIY JOYLASHUVI VA
ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI (XVIII ASR VA XX ASR BOSHLARI)**

07.00.07. – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tar1152 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.terdu.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portal (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tursunov Saypulla Narzullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Ulug'bek Saydanovich
tarix fanlari doktori, professor

Qurbonova Manzila Bakiyevna
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Jizzax davlat pedagogika instituti


Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019. Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 6.06 kuni soat 16 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino 4-qavat, Majlislar zali). Tel.:(99876) 223-13-11; e-mail: termizdu@gmail.uz


Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (156 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy). Tel/faks: 03762217690

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «20» 05 kuni tarqatildi.
(2023-yil «20» 05 dagi 16 raqamli reyestr bayonnomasi bilan).




R.E. Xalikova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi o'rinbosari
t.f.d., professor


H.E. Xolmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
t.f.n, dotsent


E.A. Qobulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d. professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiyaning dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari tufayli millatlar va xalqlarning iqtisodiy – madaniy yuksalishiga sharoit yaratib berilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, xalqlarning madaniy yuksalish jarayonida aholi sonining o’sishi, milliy tarkibini oshib borishi, hududiy joylashuvi, milliy qadriyatlarning taraqqiy etishi, innovatsion loyihalarni qo’llash dolzarb muammolarga aylanib qolmoqda.

Dunyoning rivojlangan Angliya, AQSh, Fransiya, Rossiya va Germaniya kabi mamlakatlardagi etakchi ilmiy tadqiqot markazlari millatlarning kelib chiqishi, uning o’ziga xos tanazzuli va rivojlanishiga doir hayotni o’rganish sohasini tadqiq etishga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, aholining moddiy turmush tarzini yaxshilash, kambag’allik, qashshoqlikning, oziq-ovqat tanqisligining oldini olish, turli xil ommaviy kasalliklarni bartaraf qilish, zamonaviy yashash uchun yangi loyihalarni amalga oshirish kabi muammolar ustuvor mavzular sifatida o’rganilmoqda.

Yangi O’zbekiston sharoitida o’zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini ilmiy o’rganish talablaridan kelib chiqib, milliy urf-odatlar, qadriyatlar, marosimlarni tiklash va yanada milliy zamonaviy ruhda rivojlantirish, milliy avtohtonizm g’oyalari asosida o’troq moddiy madaniyatga tayanib milliy o’zlikni yuksaltirish, milliy totuvlik, millatlar o’rtasida o’zaro inoqlik, do’stlik rishtalarini boyitish, o’tmish tarix va butun insoniyatni o’ziga jalb etgan boy moddiy va ma’naviy merosni mukammal o’rganishga qaratilgan ehtiyojga zaruriyat sezilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022—2026 - yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026 - yillarda O’zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”, 2021-yil 30-dekabrda PQ-77-son “Hunarmandchilik faoliyatini qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2022-yil-25-iyuldagi PQ-331-son “Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo’nalishlariga bog’liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy va innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” nomli ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot muammosining o’rganilganlik darajasi. Dissertatsiyada muammoning o’rganilishiga doir adabiyotlar davriyligi hamda mavzuga bevosita va bilvosita aloqadorligiga qarab qo’yidagi guruhlariga bo’lib tadqiq qilindi:

- 1) XIX asr oxiri-XX asr boshlariga oid materiallar;
- 2) Sovet davridagi ilmiy izlanishlar;
- 3) Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar;
- 4) Xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarining qisqacha sharhi.

Tanlangan mavzuning o'rganilganlik darajasi doirasida bajarilgan ilmiy nashrlar va tadqiqotlar masalasi dissertatsiyaning birinchi bobi 1.1.paragrafida mufassal berilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining ATD "O'zbekistonning janubiy hududlarida moddiy va ma'naviy madaniyat" mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Surxon vohasi yuz (juz)larning hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlarini (XVIII asr va XX asr boshlari) ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

Yuzlarning etnik va etnogenezigina oid manbalar va uning tarixshunosligini ilmiy tahlil etish:

Surxon vohasida yuz (juz) larning hududiy joylashuidagi etnik o'ziga xosligini ko'rsatib berish;

dehqonchilikning turlari hamda u bilan bog'liq marosim va urf-odatlarini yoritib berish:

vohada yashovchi yuz (juz) larning an'anaviy chorvachilik madaniyatini o'rganilmagan jihatlariga e'tibor qaratish;

yuz (juz) lar hunarmandchiligining an'anaviy va zamonaviy jihatlariga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

an'anaviy turar joylarida mintaqaviy va etnik xususiyatlarni etnohududiy jihatlarini tahlil etish;

milliy kiyim-kechaklar va zeb-ziynat buyumlari: an'anaviylik va transformatsion jarayonlarni ochib berish;

an'anaviy taomlar: tasnifi va mahalliy xususiyatlari uy hunarmandchiligi bilan bog'liq urf-odat va marosimlarini yoritib berish.

Tadqiqotning obyekti. Surxon vohasida yuz (juz) larning hududiy joylashuidagi etnik o'ziga xoslik (XVIII asr va XX asr boshlari) moddiy madaniyatining transformatsion jarayonlarida tutgan o'rnini etnologik kontekst doirasida o'rganish belgilab olindi.

Tadqiqotning predmeti. XVIII asr oxiri - XX asr boshlarida mintaqada sodir bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida Surxon vohasida yuz (juz) larning moddiy madaniyatida kechgan transformatsion jarayonlarning qonuniyatlari va xususiyatlarini etnologik tadqiqot asosida ko'rsatib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda hududiy yondoshuv, tarixiy-etnologik, retrospektiv tahlil, qiyosiy tipologik, etnografik kuzatuv, anketa so'rovnomasi o'tkazish va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Surxon vohasida yashovchi yuz (juz) larining asosan qarapchi, turkmanjuz, marqa, vaxtamg'ali va jilontamg'ali urug'laridan tashkil topganligi, ularning o'troqlashuv jarayoni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tugallanganligi dalillangan;

Yuz (juz) lar tarqalgan hududlarda dehqonchilik bilan bog'liq «xayrixudoyi», "oblo baraka", "shoxmoylar", "hashar oshi", "chosh qurdi" kabi marosimlar o'tkazilganligi, qo'ylarning tana va dumba tuzilishiga qarab "kapkir dumba", "oyna dumba" va "shalpi dumba" kabi turlarga bo'linishi aniqlangan;

aholining guvaladan qilingan uylari “bo‘rikalla”, “shapati” deb atalganligi, usti bo‘yra bilan yopilgan kapani “xos kapa” va “chum” deb atalganligi, kigiz gilamlarning “tug‘donagul”, “taqirgul”, “tug‘ma baqa”, “gajakgul”, “gultaylama”, “qirqdonagul”, “shoxmola”, “qirdo‘ngil”, “oltido‘ngil” kabi turlari keng tarqalganligi dalillangan;

XVIII asr va XX asr boshlarida aholi tomonidan “zog‘ora non”, “arpa non”, “tariq non”, “tariq zog‘ora”, qurg‘oqchilik yillarida “kepak non” tayyorlanganligi, shuningdek, non mahsulotlaridan “obi non”, “jizzali non”, “sutli non”, “patir non”, “qozon patir”, “yog‘li non”, “lochira non” kabi turlari mashhur bo‘lganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy nazariy tavsiyalar moddiy madaniyatni targ‘ib qiluvchi markazlar, muzeylar, madaniyat uylari, ta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ularni tashkiliy boshqarish, rejalashtirish va nazorat qilish uchun amaliy natijalar ishlab chiqishda foydalanilgan.

Milliy va xalqaro ilmiy anjumanlardagi ma‘ruzalar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tavsiya etgan ilmiy jurnallar va to‘plamlarda chop etilgan maqolalarda aks ettirilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, shuningdek, tarixiy faktlardan foydalanilganligi, birlamchi ilmiy manbalar, dala materiallari, etnografik adabiyotlar, arxiv hujjatlari va statistik ma‘lumotlarga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. tadqiqotda tarix va etnologiya fanida tan olingan yondashuv va usullarga tayangan holda Surxon vohasi yuz (juz) aholisi moddiy madaniyatining o‘rganilayotgan davrda va uning transformatsiyasiga oid manbalar (muzey eksponatlari, arxeologik topilmalar, tarixiy yodgorliklar bezaklari), tarixiy adabiyotlar, arxiv hujjatlari, dala materiallari, etnografik kuzatuvlar, chuqurlashtirilgan intervyulardan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning ilmiy jamoatchilik tomonidan e‘tirof etilganligi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini mavjud ilmiy manbalar, etnografik adabiyotlardan olingan qiyosiy materiallar, o‘rganilgan arxiv va statistik hujjatlar asosida XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Janubiy O‘zbekiston aholisi moddiy madaniyatida kechgan transformatsion jarayonlar tahlil qilinganligini belgilab berdi. Mazkur muammoni o‘rganish ushbu mintaqaning boy qadimiy tarixga ega ekanligini tushunishga va aholining yuksak moddiy madaniyat sohiblari ekanligi haqidagi bilimlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya ishi materiallari asosida oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida “Etnologiya”, “O‘zbek xalqi etnologiyasi”, “O‘zbekiston tarixi”, “Moddiy madaniyat tarixi” kurslari bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, dasturlar, ma‘ruza matnlari yaratishda samarali foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan davlat va nodavlat tashkilotlarining tashkiliy boshqarish, rejalashtirish va nazorat amaliy faoliyatlarida ham foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Surxon vohasida yuz (juz) larning hududiy joylashuvidagi etnik o‘ziga xoslik (XVIII asr va XX asr boshlari) moddiy

madaniyatining transformatsion jarayonlarida tutgan o‘rnini ilmiy o‘rganish yuzasidan to‘plangan ma’lumotlar asosida:

Surxon vohasida yashovchi yuz (juz)larining asosan qarapchi, turkmanjuz, marqa, vaxtamg‘ali va jilontamg‘ali urug‘laridan tashkil topganligi, ularning o‘troqlashuv jarayoni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tugallanganligi, shu davrda aholi tomonidan “zog‘ora non”, “arpa non”, “tariq non”, “tariq zog‘ora”, qurg‘oqchilik yillarida “kepak non” tayyorlanganligi, shuningdek, non mahsulotlaridan “obi non”, “jizzali non”, “sutli non”, “patir non”, “qozon patir”, “yog‘li non”, “lochira non” kabi turlari mashhur bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” kanalida “Surxon vohasi yuzlari moddiy madaniyati” mavzusidan foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022 - yil 14 - iyundagi 02-06-921-son ma’lumotnomasi). Bu esa voha aholisi o‘zbeklari moddiy madaniyatida ikki muhim faktor, ya’ni o‘troq dehqonchilik va chorvachilik madaniyatiga xos xususiyatlar mujassamlashganligi hamda mintaqa madaniyati ushbu ikki madaniyatlar uyg‘unlashuvi asosiga qurilganligini targ‘ib qilishga xizmat qilgan;

Yuz (juz) lar tarqalgan hududlarda dehqonchilik bilan bog‘liq “xayrixudoyi”, “oblo baraka”, “shoxmoylar”, “hashar oshi”, “chosh qurdi” kabi marosimlar o‘tkazilganligi, qo‘ylarning tana va dumba tuzilishiga qarab “kapkir dumba”, “oina dumba” va “shalpi dumba” kabi turlarga bo‘linishi to‘g‘risidagi, «bo‘rikalla», “shapati” deb atalganligi, usti bo‘yra bilan yopilgan kapani “xos kapa” va “chum” deb atalganligi, kigiz gilamlarning “tug‘donagul”, “taqirgul”, “tug‘ma baqa”, “gajakgul”, “gultaylama”, “qirqdonagul”, “shoxmola”, “qirdo‘ngil”, “oltido‘ngil” kabi turlari keng tarqalganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazida tashkil etilgan tanlovda “Surxon vohasi milliy moddiy madaniyatida yuzlarni an’anaviy xo‘jaligi” mavzusidagi ma’lumotlardan foydalanilgan (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil 13-fevraldagi 42-son ma’lumotnomasi). Natijada Surxon vohasining yuz (juz) aholisi moddiy madaniyatining o‘rganilayotgan davrda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar ta’sirida transformatsiyalashuvi hamda an’anaviy moddiy madaniyatga kirib kelgan turli-tuman innovatsiyalar hamda ularning milliylashuvi omillarini targ‘ib qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 15 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarida, shu jumladan, 6 ta xalqaro va 9 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta (4 ta respublika va 1 ta chet el jurnalida) maqola, 6 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy tezislarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'ekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, aprotatsiyasi, natijalarning joriy qilinishi, tarkibiy tuzilishi va hajmi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Surxon vohasi yuz (juz) larining an'anaviy madaniyati tarixshunosligi va aholining etnik tarkibi hamda hududiy joylashuvi»** deb ataladi. Unda Surxon vohasida yashovchi yuz (juz) urug'larining hududiy joylashuvi, joylashuv xususiyatlari, etnik tarkibi va aholining an'anaviy marosimlari tahlil qilinadi. Surxon vohasida yuz (juz) larining hududiy joylashuvi etnik jihatdan o'ziga xos tarixiy-etnografik mintaqaga bo'lib, ushbu hudud qadimiy Sharq sivilizatsiyasida katta ahamiyatga ega bo'lgan Xolchayon, Budrachtepa, Dalvarzintepa kabi qadimiy madaniyat yodgorliklari ilk davlatchilik markazlaridan biri ekanligining yaqqol isbotidir¹.

Mavzu doirasida bajarilgan adabiyotlar tahlilini bayon qilishdan avval shuni alohida ta'kidlash kerakki, Surxon vohasida yuz (juz) aholisining XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi etnik xususiyatlariga tegishli ilmiy adabiyotlar kam bo'lib, ularning asosiylari tadqiq etilayotgan davrda mintaqaga turli maqsadlarda kelgan rossiyalik sayyohlar, mustamlaka idora vakillari, harbiy zobitlari tomonidan yozilgan asarlarda bayon qilingan. Xususan, 1863-yilda Samarqand, Buxoro, Xiva hamda boshqa yirik shaharlarni o'rgangan major sayyohi va sharqshunos X. Vamberi 32 ta o'zbek urug'i ro'yxatini keltiradi².

O'rta Osiyoni rayonlashtirish bo'yicha maxsus komissiya 1924-yil sentyabrdan-1925-yilning fevraligacha ish olib borgan. Bu komissiya materiallarida I.P. Magidovich tomonidan tayyorlangan Surxon vohasining ma'muriy tuzilishi statistik ma'lumotlari asosida berib o'tilgan bo'lib, aynan mazkur ma'lumotlar tadqiqotimiz uchun ahamiyatlidir.³

Rus etnograf olimi L.P. Potapov 1928-yil O'zbekistonning Janubiy hududlari bo'ylab o'tkazgan ekspeditsiyasi davomida to'plagan ma'lumotlari asosida chop qilgan maqolasida voha aholisining etnik tarkibi, moddiy va maishiy turmush tarzi kabi masalalarga to'xtalib o'tgan⁴.

Surxon vohasi yuz (juz)larining qadimgi va o'rta asrlar davriga oid doimiy turar joylarini ilmiy asosda tadqiq qilishda arxeolog va tarixchi olimlardan G.A. Pugachenkova, E.V. Rtveladze, A.A. Asqarov, S.N. Tursunov, T. Annaev, Sh. Shaydullaevlarning tadqiqotlari tahsinga sazovordir.

¹Пугаченкова Г.А. Новые данные о художественной культуре Бактрии // Из истории античной культуры Узбекистана. –Ташкент, 1973. –С. 78-128; Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. Очерки истории и культуры (Древность и средневековье). –Ташкент, 1990.

²Вамбери Г. Очерки Средней Азии. –М., 1968.

³О'zbekistonni rayonlashtirish ishidagi materiallar. Birinchi bo'lak. –Samarqand-Toshkent, 1926 (eski o'zbek yozuvida); Список населенных пунктов Узбекской ССР 1928 года. Самарканд, 1929; Материалы Всесоюзной переписи населения 1926 г. в Узбекской ССР. Вып. I. Поселенные итоги. –Самарканд, 1927. –С. 255-272; Материалы по районированию Средней Азии. Кн. I. Территория и население Бухары и Хорезма. Ч. I. –Бухара-Ташкент, 1926.

⁴Потапов Л.П. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков «Кунград» // Научная мысл. –Ташкент-Самарканд, 1930. –№1. –С. 37-57.

Yuz (juz)larning Surxon vohasida turar joylar qurilishi masalasi arxitektura aspektida Z.A. Arshavskaya, E.V. Rtveladze, Z.A. Hakimovlar muallifligida nashr etilgan “Surxondaryoning oʻrta asrlar davri yodgorliklari” monografiyasida juda yaxshi yoritilgan. Ushbu tadqiqot mualliflari XVI asrda Denov markazida bunyod etilgan ikki qavatli Said Otaliq madrasasi, Surxon vohasining Vaxshivor qishlogʻida Soʻfi Olloyor tomonidan 1713-yilda bunyod etilgan masjid qurilishi misolida anʼanaviy mahalliy arxitekturaning oʻziga xos lokal xususiyatlarini koʻrsatib bera olgan.

Tadqiqotda Oʻzbekistonning turli hududlari yuz (juz) larni anʼanaviy turar joylari K. Zadixina, B. X.Karmisheva, K. Shoniyozov, H. Ismoilov, O. Ibragimov, I. Jabborov, O. Boʻriyev, G. Zunnunovalar tomonidan ham tadqiq etilgan⁵. K. Zadixina Quyi Amudaryo vohasida joylashgan tojiklarning turar joylariga toʻxtalgan boʻlsa, B.X. Karmisheva esa Janubiy Oʻzbekistonda yashovchi yuz (juz)larning turarjoylari masalasini yoritib bergan va oʻzbeklar orasida koʻchma uylarning turlari haqida toʻxtalib oʻtgan. Aynan, mazkur tadqiqotlar bizning ishimiz uchun muhim qiyosiy material boʻlib xizmat qildi.

Surxon vohasi yuz (juz) larining etnik xususiyatlariga bagʻishlangan S.N.Tursunov, E.O.Qobulov, A.E.Qurbonov, N.N.Tursunovlarning tadqiqotlarida anʼanaviy uy-joylar masalasi ham tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot ham masalani qiyosiy oʻrganishda va bir-birini toʻldiruvchi material sifatida maʼlum maʼnoda tadqiqotimiz uchun ahamiyatlidir⁶. Tadqiqotda XX asrning 80-90-yillarida yuz (juz) larning oilaviy marosim va urf-odatlarini haqida H. Ismoilov, M. Hamidjonova, O. Boʻriev, N. Lobacheva, T. Toshboeva, M. Savurov va M. Joʻraevlarning tadqiqotlarida diqqatga sazovor mulohazalar bildirilgan⁷. L.P.Potapov. K.Sh.Shoniyozov, B.X.Karmisheva kabi mashhur etnograf olimlarning ishlari ham sovetlar davri mafkurasiga xizmat qilgan deb

⁵Задыкина К.Д. Узбеки дельты Амударии // Труды ХАЭЭ. Т. 1. –М., 1952. –С. 355-359; Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана // Труды АН ТаджССР. Т. XXVIII. –Сталинабад, 1954. –С. 133; Oʻsha muallif. Жилища узбеков племени карлук южных районов Таджикистана и Узбекистана // ИООН АН ТаджССР. Вып. 10-11. –Душанбе, 1956; Oʻsha muallif. Основные виды переносного жилища узбеков и кочевые жилища народов Средней Азии и Казахстана. –М., 2000. –С. 50-70; Шаниязов К.Ш., Исмаилов Х.И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начала XX в. –Ташкент, 1981. –С. 54-59; Ибрагимов И.О. История развития жилищ населения степных районов Южного Узбекистана конца XIX – начала XX в.: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. –Ташкент, 1988; Jabborov I. Oʻzbek xalqi etnografiyasi. –Toshkent, 1994; Oʻsha muallif. Oʻzbeklar: turmush tarzi va madaniyati. –Toshkent, 2003; Boʻriev O., Ismoilov N. Oʻzbek xalqining anʼanaviy oʻy-joylari // Guliston. –Toshkent, 2000. –№4. –B. 44-45; Zununova G.Sh. Toshkent oʻzbeklarining anʼanaviy uy-joylari va uning oʻzgarishi // Toshkent mahallalari: anʼanalar va zamonaviylik. –Toshkent, 2002. –B. 73-85; Oʻsha muallif. Жилище в ритуально-обрядовой системе узбекского этноса (на материалах махалли г. Ташкента) // Oʻzbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va nazariy metodologik yondashuvlar. –Toshkent, 2004. –B. 134-140.

⁶ Tursunov S., va boshq. Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2013; Tursunov S.N., Rashidov Q. Boysun. – Toshkent: Akademnashr, 2011; Qobulov E. Surxon vohasi xoʻjaligi (XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida). –T.: “Akademnashr”, 2012; Qurbonov A.E. Shimoliy Surxon vohasi etnografiyasi (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmi).-Toshkent: “Yangi nashr”, 2013; Tursunov N.N. Этнические особенности населения Южного Сурханского оазиса (конец XIX – начало XX века): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2007.

⁷Ismoilov H. Oʻzbek toʻylari. –Toshkent, 1992; Хамиджанова М.А. Туяхона – обрезание у таджиков верховий Заравшана // История и этнография народов Средней Азии. Сб. ст. –Душанбе, 1981. – С. 90-105; Boʻriev O. va boshqalar. Oʻzbek oilasi tarixidan. –Toshkent, 1995; Oʻsha muallif. Kengashli toʻy tarqamas // Muloqot. –Toshkent, 1999. –№1. –B. 52-53; Лобачева Н.Г. Брак // Семейный быт народов СССР. –М., 1991. –С. 446-462; Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту селской семи узбеков. –Ташкент, 1989; Жўраев М. Овмин тўй // Фан ва турмуш. –Тошкент, 1992. –№2. –Б. 10.

xulosa qilish mumkin emas. Aynan mazkur mualliflar tomonidan yuz (juz) lar etnografiyasi, xususan, etnik tarixiga oid juda katta ilmiy ma'lumotlar yig'ilgan.

Tadqiqotda B.X. Karmishevaning ta'kidlashicha, turkman-yuzlarining Surxon-Hisor vohasiga kelib qolishi borasida uchta qarash mavjud: birinchisi, qo'ng'irotlar kabi "orqa yurtdan"; ikkinchisi, avlodlari yurti O'ratepa va Nurotadan. Sohibqiron Amir Temur davrida Surxon vohasida Turkman dasht mavjud bo'lib, rivoyatlarga qaraganda, Turkman dasht Amir Temur otasining qo'rg'oni bo'lgan; uchinchisi, Sulton Sanjar moziy tomonidan yuzta turkman oilasi ko'chirib keltirilgan. Shuning uchun ulardan tarqalgan avlodlar yuz (juz), ya'ni turkman-yuz deb nomlangan⁸.

I. Magidovich etnografik hisobot ma'lumotlariga tayanib, yuz urug'ining Farg'ona, Xo'jand va Toshkent viloyatlarida ham istiqomat qilganligini ta'kidlaydi⁹. Biz o'z tadqiqotimizda bu urug'lar ittifoqini quyidagi ilmiy asoslangan bo'limlarga ajratib o'rgandik. Qorapchi va marqadan tashqari, so'rov natijalariga asoslanib, biz yuz urug'i tarkibiga yana ikkita urug'ni kiritdik: vaxtamg'ali (yoki baxtamg'ali) va jilontamg'ali. So'rovlar natijasida bu ikki urug' yana mayda dahalarga bo'linishi aniqlandi. Jumladan, juz-jilontamg'ali: 1. Qarg'a; 2. Iyarchi; 3. Ko'sa; 4. Potas; 5. Bolaxo'r; 6. Yo'rg'a; 7. Bog'anali; 8. Qoratamg'ali urug'lariga bo'linganlar¹⁰.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Surxon vohasida yashovchi yuz (juz) larning xo'jalik faoliyati" deb ataladi. Unda dehqonchilik turlari va u bilan bog'liq urf odatlar, vohada yashovchi (yuz)juzlarning ana'naviy chorvachiligi va hunarmandchilikning ana'naviy va zamonaviy jihatlari tahlil qilinadi.

Vohada yashovchi aholi tomonidan tuproq unumdorligini tiklash va agrotexnika tadbirlari ishlab chiqilgan: melioratsiya, qumloq, loyqa bilan o'g'itlash, vayron qilingan gil konstruksiyali tuproqlar, sug'orish va tuproqning sho'rini yuvish usullariga e'tibor berilgan¹¹.

Tarixdan ma'lumki, Surxondaryo hududi dehqonlari miloddan avvalgi VI-IV ming yillikdayoq donli ekinlardan bug'doy, arpa, tariq, mevali daraxtlardan o'rik, olma, nok, poliz ekinlaridan qovun, qovoq va boshqalarni madaniylashtirishgan¹².

Dehqonchilikda yer haydash (shudgorlash), erga don sepish, g'alla o'rish va xirmon ko'tarish ("chosh qilish") bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar va an'analar uzoq o'tmishga, ya'ni Navro'z bayrami paydo bo'lishidan ham avvalroq shakllangan. "Shoxmoylar" marosimi, ya'ni dalaga qo'sh chiqarish kunini o'tkazish uchun qishloq oqsoqollari, kun ag'daruvchilar (yulduzlar harakatiga qarab, yaxshi-yomon kunlarni aniqlovchi hisobdonlar) omadli, xosiyatli kunni belgilaganlar. Marosimga qatnashganlar tomonidan taomlar eb bo'lingach, marosim ishtirokchilariga: "Mushkullaring oson bo'lsin, boshlaring omon bo'lsin; tani sihatlik, elda xotirjamlik bo'lsin; erga qadalgan bir dona urug'laring ming dona bo'lsin; xudo yor, aziz avliyo – anbiyolar madadkor bo'lsin; Bobodehqonu Xizr buvalar qo'llab-quvvatlasin", deb duo

⁸Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории Южных районов Таджикистана и Узбекистана. –М.: Наука, 1976. –С. 224.

⁹Материалы по районированию Средней Азии. Кн. 1. Территория и население Бухары и Хорезма. Ч. 1. Бухара. –Ташкент: Гос. Изд., 1926. –С. 203.

¹⁰Dala yozuvlari. 2019 yil. Sho'rchi tumani markazi, Shalldiroq qishlog'i. 2019 yil Oltinsoy tumani Chuqur obshir qishlog'i; Bu haqda yana qarang: Населенные пункты Бухарского эмирата. –Ташкент, 2001. –С. 162-164.

¹¹ Очерки по истории хозяйства народов Средней Азии и Казахстана. - Л.: "Наука", 1973. -С. 9-10.

¹² Материалы к историко-этнографическому атласу Средней Азии и Казахстана. - М-Л.: АН СССР, 1961. -С. 138.

qilishgan¹³. Marosim tugaganidan so'ng barcha dehqonlar o'z ho'kizlarini etaklab xonadonlariga qaytganlar va oila davrasida bayramni davom ettirib, ular mulla-eshonlarni chaqirishgan va "Dehqonlar risolasi" hamda boshqa diniy kitoblarni o'qishgan¹⁴.

Dehqonchilikda shamol homiysi bilan bog'liq tasavvurlarga ko'ra, shamol chaqirish marosimida aytiladigan qo'shiqlarda shamol homiysi sifatida Haydar shaxsiyatiga, ya'ni Muhammad Payg'ambarning kuyovi Hazrat Aliga murojaat qilinadi. Haydar kuch-qudrati va tadbirkorligi bilan barcha tabiat hodisalari, jumladan, shamolni ham o'z izmida saqlar emish. Agar unga iltijo qilib murojaat etilsa, u o'zi tutib turgan shamolni qo'yib yuborar emish.

Qadimdan xalqimizda haftaning har bir kuni muayyan osmon jismlari bilan bog'liq holda tasavvur qilingan. Haftada etti kun borligi ham etti sayyora nomi bilan aloqadorligi ma'lum bo'lgan. Masalan, dushanba Oy kuni, seshanba Mirrix (Mars) kuni, chorshanba Atorud (Merkuriy) kuni, payshanba Mushtariy (Yupiter) kuni, juma Zuhra (Venera) kuni, shanba Zuhal (Saturn) kuni, yakshanba Shams (Quyosh) kuni hisoblangan. Shuningdek, yetti qavat osmon bilan yetti qat yer to'g'risidagi asotirlar ham keng tarqalgan¹⁵.

Etnograf S.Polyakovning qayd etishicha, Markaziy Osiyoda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilikning meridional, vertikal va statsionar shakllari mavjud bo'lgan¹⁶. Markaziy Osiyo aholisida chorva xo'jaligining tarixan shakllangan uchta turi: ko'chmanchi (ko'chma va yarim ko'chma) chorvachilik, yaylov chorvachiligi va qo'ra (og'il) chorvachiligi keng ommalashgan¹⁷. Surxondaryo vohasining tog' va tog'oldi hududlari aholisi bahor kelishi bilan chorvani tog'larga haydab, kuzda yana pastga, tog' vodiylaridagi qishloviga tushib kelgan va shu erda qishni o'tkazishgan¹⁸. Janubiy O'zbekiston hududini tadqiq etgan etnograf B.X.Karmisheva chorvachilikning mazkur hududga xos to'rtta turini ajratib bergan. Bular, ko'chma usul, haydov-yaylov usuli, haydov usuli va qo'ton-haydov usullari¹⁹.

O'lkashunos olim G.Arandarenkning ta'kidlashicha: "... xo'jalikning boshqa hech bir turiga qo'ychilikka bo'lgani kabi katta e'tibor va mehnat sarf etilmagan. Barcha hududda qo'ychilikka katta daromad manbai sifatida qaralgan"²⁰. O'zbekistonda 1950-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra hamma qishloq xo'jalik hayvonlari orasida qoramol, ot, tuya va eshaklar atigi 33 % bo'lgani holda, qo'y va echkilar 67 % ni tashkil etgan²¹. Yoz faslida tog' oldi hududlarida joylashgan yaylovlardan ma'lum bir jamoa foydalangan. Qo'ychilik sohasi ko'chma chorvachilik va yaylov chorvachiligi shaklida rivojlangan. Ko'chma chorvachilikda qo'ylar yil

¹³Dala yozuvlari. Oltinsoy tumani Chinor qishlog'i. 2019.

¹⁴Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. -B. 198.

¹⁵Egamberdiev S., Soatov A. Olimlar olam haqida. -T., "O'zbekiston", 1990. -B. 7.

¹⁶ Поляков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана. – М.: МГУ. 1980. – С. 25.; Toshboev F.E. Ustrushona chorvadorlarining antik davr madaniyati. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2017. – B. 13.

¹⁷ Поляков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана... – С. 44.

¹⁸ Dala yozuvlari. Boysun, Oltinsoy, Sherobod, Uzun, Sariosiyo tumanlari. 2022 yil.

¹⁹ Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана // СЭ вып. – Москва, 1969. – № 23. – С. 86.

²⁰ Арандаренко Г.А. Досуги в Туркестанъ 1874 – 1889. С. – Петербургъ, 1889. – С. 83.

²¹ Kiyatkin P.F. O'zbekistonda qo'ychilik... 1952. – B. 4.

davomida mavsumiy yaylovlarda boqilgan va chorvachilik xo‘jaligida u asosiy o‘rinni egallagan²².

Voha tog‘ oldi qishloqlarida qo‘ylar bahorgi yaylovga chiqqanidan keyin, asosiy tadbirlardan biri bu-chorva qirqimi (jun olishi) bo‘lgan. Qirqim mavsumi bir yilda ikki marta, ba‘zi hududlarda bir marta o‘tkazilgan. Birinchi qirqim davri aprel oyining oxiri, may oyining boshlarida boshlangan. Ikkinchi davri esa avgust oyining oxiri va sentyabr oyining boshlariga to‘g‘ri kelgan. “Qo‘y kerak bo‘lsa avgustda, jun kerak bo‘lsa sentyabrda qirqimni o‘tkaz” maqoli Jizzax vohasi hududiga ham xos bo‘lib, bunday ta‘kid ikkinchi qirqimni avgust oyida o‘tkazishning foydasi ko‘proqligiga ishoradir²³. Yuz (juz) lar yashaydigan hududlarda qo‘ylar tana va dumba tuzilishiga qarab ham turlicha nomlangan. Ularning “kapkir dumba”, “oyna dumba” va “shalpi dumba” kabi turlari bo‘lgan²⁴. Qozoqi qo‘y va histori qo‘chqorlarni chatishtirish natijasida olinayotgan qo‘zilar yirik va sog‘lom, eng asosiysi nasldor bo‘lmoqda²⁵.

Vohada omochga qo‘shiladigan ho‘kizlar yoshligidan tanlab olingan. Shu sababli mol bozorlarida yosh ho‘kiz narxi ancha baland bo‘lgan. Bozorda go‘shtiga (og‘irligiga) qarab emas, balki uning sog‘lom, o‘suvchanligiga qarab narx belgilangan. Ho‘kizlar 1-2 yoshlarida bichilgan, bunday ho‘kizlar “axta ho‘kiz” deyilgan. Ko‘pincha ho‘kizlar alohida-alohida boqilgan²⁶.

Vohada uyurdagi otlar qishin-yozin tog‘da boqilgan. Yilqi uyurlari tog‘larning darasidagi maxsus “otqamov”larga haydab borilgan. Otlarni minishga o‘rgatish esa ikki yoshdan boshlangan²⁷. Minishga o‘rgatish turli usullarda, ba‘zi hududlarda egarjabduq solinib, Sho‘rchi tumani Egarchi qishlog‘ida maxsus tikilgan xurjinlarga engil yuk solinib amalga oshirilgan. T.Mirsoatov tadqiqotida ham ba‘zi o‘hshash va farqli nomlar keltirilgan. “Masalan, bir yoshgacha bo‘lgan ot-qulun, bir yoshdan ikki yoshgacha-kalta toy, ikki yoshdan uch yoshgacha-g‘o‘non chiqma, uch yoshdan to‘rt yoshgacha-do‘nan, to‘rt yoshdan besh yoshgacha-beshli, beshdan yuqori yoshdagilar-ot²⁸ deb ta‘riflaydi. E.Qobulovning qayd etishicha, yilqibozlar otning tishiga, ya‘ni kurak, qoziq va jag‘ tishlariga qarab yoshini aniqlagan. Kurak tishlar-oldingi tishlar bo‘lib, 12 ta bo‘lak tishlari esa 24 tani tashkil qilgan. Ular yuqori va pastki jag‘larning yon tomonlarida 6 tadan joylashgan. Qoziq tishlar faqat ayg‘irlarda bo‘lib, biyalarda kamdan-kam hollarda uchraydi²⁹. Ushbu transport hisoblangan hayvonlar insonlarning og‘irini engil qilishidan tashqari, inson salomatligi uchun shifobash ichimliklarni olishda ham qo‘l kelgan. Vohada ot bilan bog‘liq urf-odatlar va xalq o‘yinlarining saqlanib qolishi natijasida tulporlar haqida turli xil rivoyatlar to‘qilishiga sabab bo‘lgan. Tuyachilikning esa ming yillar davomida Buyuk ipak yo‘lining asosiy transporti bo‘lishidan tashqari undan olinadigan mahsulotlarning shifobaxshligi ham ahamiyatli bo‘lgan.

²² Шаниязов К.И. Отгонное животноводство у узбеков. – Ленинград, 1973. – С. 37.

²³ Sarimsoqov A.A. O‘zbeklarning taqvimiy marosimlari (Farg‘ona vodiysi materiallari asosida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2010. – B. 89.

²⁴ Dala yozuvlari. Boysun, Oltinsoy, Sherobod, Uzun, Sariosiyo tumanlari. 2022 yil.

²⁵ Dala yozuvlari. Qumqo‘rg‘on, Boysun tumanlari. 2020 yil.

²⁶ Qobulov E. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Surxon vohasi xo‘jaligi... – B. 172

²⁷ Toshev X. Zarafshon vodiysi chorvadorlarining turmush va madaniyati... – B. 147.

²⁸ Mirsoatov T.Z. O‘zbek tilining qirq shevasi... – B. 112.

²⁹ Qobulov E. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Surxon vohasi xo‘jaligi... – B. 182.

Surxondaryo vohasida XX asrning 60-70-yillariga qadar gilamdo‘zlar bo‘yoqlarni asosan mahalliy bo‘yoqbop o‘simliklardan ro‘yan, isparak, nok po‘stlog‘i va yashil yong‘oq bargidan olishgan³⁰, keyinchalik kalavalarni bo‘yashdan avval bozordan tayyor kimyoviy bo‘yoq vositalarini sotib olishgan va ishlatishgan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda.

B.X.Karmisheva tomonidan aytilishicha, urchuqning turlari sakkizta bo‘lgan³¹. Etnografik adabiyotlarda keltirilishicha, qo‘l urchuqlari - qoraqalpoqlarda – urshik, turkmanlarda – ik, qirg‘izlarda – iyk, o‘zbeklarda yig yoki dug deb nomlangan³².

Ayollar gilamga tushiriladigan naqshlar tasviri ramz-belgilarni o‘tmishda va hozirda ham kishilarning xayollari, orzulari, ruhiy-ijtimoiy ongini ifoda etgan deb hisoblagan. Jumladan, naqshlarda chorvador aholi madaniyatiga xos an‘anaviy mavzular, “qo‘chqorak” (qo‘yning shoxi) naqshi Boysun gilamlari va kigizlariga xos naqsh bo‘lib, hayvon timsollaridan “kirmak” (chuvalchang), “zuluk”, “ilon izi” naqshlari ham keng qo‘llanilgan. Geometrik naqshlar asosan shakl ajratuvchi chiziqlarda, naqshlarning sirtini ifodalagan³³. To‘y kiyimlarida ayollar ko‘ylagining englari, oldi va etaklariga kashta tikish saqlanib qolgan. Surxondaryo viloyatining Boysun qo‘ng‘irotlari esa ko‘ylaklarining yoqalariga kashta solgan bo‘lsa, chig‘atoy, o‘zbek, tojik chig‘atoy ayollari esa ko‘proq ko‘ylak oldi va englariga kashta tikishgan³⁴. Qolaversa, hozirgi kunda kashta va kashta buyumlarining 100 dan ortiq yangi zamonaviy ko‘rinishlari nimcha (uzun va kalta), syurtuk, kostyum-pidjak, kashtali oyoq kiyimlar (etik, tufli va tapochka), turli shakldagi hamyonchalar, qo‘l ro‘molchalar, kepkalar, ryukzaklar, koshelyoklar, kitob uchun g‘ilof, telefon va ochkilar uchun g‘iloflar, sochpopuk, poppli kashtalar, kashtali lozim, joypo‘sh, joynamoz, bo‘g‘chalar, yostiq jildlari, iroqi do‘ppi-qalpoq, pardoz xalta va boshqa turli shakldagi suvenirbop buyumlar tayyorlanmoqda.

Shuningdek, aholining hunarmandchilik bilan bog‘liq ba‘zi bir turlarini erkaklar tomonidan ham ot-eshaklar uchun egar-jabduqlar, chavandozlik anjomlari, mol terisidan oyoq kiyimlar va har xil idishlar tayyorlashgan³⁵. Masalan, Egarchi qishlog‘ida yashovchi bir nechta sulolaviy oilalar ot uchun maxsus egar-jabduqlar, chavandozlik anjomlarini hozirgi kunda ham tayyorlashmoqda³⁶. Bundan tashqari, XX asrning 80-90 yillarida ham tegirmon toshini tayyorlaydigan sangtarosh ustalar Qo‘shtegirmon qishlog‘ida ham bo‘lganligini dala tadqiqotlarida olib borilgan axborotchilar bilan suhbat jarayonida bu o‘z isbotini topdi³⁷.

Xullas XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar etnik jamoalarning tarkibiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan va aholining bir-biriga yaqinlashishi va qo‘shilishi jarayonlari sodir

³⁰ Moshkova V.G. Ko‘rsatilgan asar. – S. 33.

³¹ Кармышева Б.Х. Ткачество и прядение у населения южных районов Таджикистана и Узбекистана (XIX - начало XX в.) // Проблемы типологии в этнографии. - М.: Наука, 1979. – С.257.

³² Davlatova S.T. ko‘rsatilgan asar. – B. 238.

³³ Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. Akademnashr nashriyoti, 2011. – B. 224-225.

³⁴ Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. ... – B.243.

³⁵ Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi. – B.62.

³⁶ Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani, Egarchi qishlog‘i. 2021 yil.

³⁷ Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani, Qo‘shtegirmon qishlog‘i. 2021 yil.

bo'lgan. Ammo, shunga qaramasdan o'rganilayotgan davrda voha aholisi o'z etnik xususiyatlarini saqlab qolgan edi.

Dissertatsiyaning **“Surxon vohasi yuz (juz) lari moddiy madaniyatining etnik xususiyatlari”** deb atalgan uchinchi bobida Surxon vohasida yuz (juz) larning an'anaviy turarjoylarida mintaqaviy va etnik xususiyatlar, milliy kiyim-kechaklar va zeb-ziynat buyumlari: an'anaviylik va transformatsion jarayonlar hamda an'anaviy taomlar: tasnifi va mahalliy xususiyatlari tahlil qilinadi.

O'zbekiston hududida uy-joylar qurilishi qadimiy tarixga ega bo'lib³⁸, Surxon vohasida yuz (juz) larning qadimgi turarjoylari tabiiy sharoitni hisobga olgan holda barpo qilingan. Shuningdek, har bir qurilgan bino qurilishida undan foydalanish manfaatlari to'liq hisobga olingan.

Surxon vohasida yuz (juz) larni uy-joy qurishda o'ziga xos urf-odatlar bo'lgan. Masalan, uy qurilishini boshlashdan oldin kun o'nglanib, haftaning xayrli va xosiyatli kunlari aniqlanib³⁹, shundan so'ng qo'y so'yilib, qo'ni-qo'shnilar chaqirilgan. Mehmondorchilikdan so'ng uy devoriga toshni birinchi bo'lib badavlat, yoshi ulug' keksa kishi qo'ygan, qolganini yoshlar davom ettirganlar. Vohaning Vaxshivor, Bodihavo kabi qishloqlarida esa uy qurilishiga chaqirilganlarning hammasi birinchi kuni o'zlari bilan uy devoriga bittadan tosh keltirganlar. Keyin mehmon bo'lib tarqalishgan. Uy qurilishini esa uy egasi o'z oila a'zolari bilan boshlagan. Uy poydevorining birinchi qatorini uy egasining o'zi qalab, qolganiga hashar uyushtirgan. Axborotchilarning ta'kidlashicha, ota-bobolari qadimdan odatda uy qurishda ishni binoning “qibla”⁴⁰ tomonidan boshlashgan. Albatta, uyni yopishda yog'och (asosan archa, tol yoki terak) to'sinlar toq (3, 5, 7, 9, 11, 13) qo'yilgan. Masalan, oshxona, dahlizlar uchun uch yoki beshta yog'och (xori) ishlatilsa, mehmonxona va boshqalari uchun etti, to'qqiz, o'n bittagacha qolaversa, uyni xonalari kattalashishiga qarab undan ham ko'p ishlatilgan. Tomning yog'ochi (xori) ustidan vassa qo'yilib, vassa ustidan chiy, bo'yralar yoki qamish to'shab somon loy bilan suvalgan.

Surxon vohasida yuz (juz) larida o'tmishdan mavjud bo'lgan turarjoylardan biri kapa bo'lib, voha o'zbeklarida “kapa”, “chayla” deb atalsa, qozoqlarda esa “kurke” deyiladi⁴¹. Kapa vaqtinchalik va mavsumiy turarjoy bo'lib tezda yig'ishtirib olishga qulayligi hamda sodda tuzilganligi bilan ajralib turadi⁴². Surxon vohasida yuz (juz)larida kapa yumaloq (gumbazsimon) va tik (konus) shaklida bo'lib o'rtacha kattaligi eniga uch-to'rt quloq, bo'yiga besh-olti quloq bo'lgan. Kapani tikish uchun uzunligi uch to'rt quloq, diametri bir yarim, ikki bo'g'in keladigan tol yoki (tut, yulg'un, archa, zarang), ya'ni “kapa cho'p” yerga bir qarich uzunlikda, orasi uch qarich enlikda qoqilgan. Kapa cho'plar bo'shamasligi uchun ikki quloq yuqorirog'idan jundan to'qilgan tizma bilan bog'lab chiqilgan. Jundan eni to'rt quloq, bo'yi olti-sakkiz quloq uzunlikda kigiz qilingan bo'lib, shamol, dovul ko'tarib yubormasligi uchun to'rt burjiga jundan arqon qilinib, kapa cho'pga bog'langan. Pishiq qilib, mustahkam

³⁸ Asqarov A.A., Abdullaev B.N. Djarkutan. –Tashkent: Fan, 1983; Asqarov A. Eng qadimgi shahar. –Toshkent, 2001; Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. –Toshkent, 2004.

³⁹ Устаев Ш. Дни недели в поверьях народов Южного Узбекистана / Труды Байсунской научной экспедиции. Вып. 3. –Ташкент, 2007. –С. 179-184.

⁴⁰ Qibla – musulmonlarda Ka'ba joylashgan tomonga nisbatan qo'llaniladigan atama.

⁴¹ Муканов М.С. Халык мурасы. –Алма-Ата, 1974. –С. 99.

⁴² Dala yozuvlari. 2020 yil. Oltinsoy tumani Chinor qishlog'i.

tayyorlangan bu kigizlardan qor va yomg'ir o'tmagan. Shuningdek, kigizdan tashqari qamish yoki ustidan somonli loy bilan loy suvoq qilganlar. Yozgi kapalar esa qamish bilan yopilgan⁴³. Ayrimlarining usti somonli loy bilan suvalgan. Eshik og'ziga qish faslida kigiz, boshqa issikli kunlarda bo'yra yoki sholdan to'qilgan mato to'shab qo'yganlar. Oltinsoy tumani Ipoq, Qarluq qishloqlarida tepasidan tutun chiqadigan tuynuk ham qilingan⁴⁴. Yerga chiy (bo'yra) to'shalib, ustidan kigiz yoki gilam to'shaganlar. Kapaning devoriga taqab naparmach, bo'g'jama, ko'rpa, yostiq hamda boshqa buyumlar qo'yilgan. Kiraverishda eshikka yaqinroq joyda o'choq bo'lib, tutun tuynukdan chiqib turgan. Shuningdek, sandaldan foydalanilgan. Surxon vohasida yuz (juz)larida kapalarning usti(tomi)ni maxsus qamishdan to'qilgan bo'yralar bilan yopganlar. Bu kapani vohaning yuz, do'rmon, qarluq, barlos urug'iga mansub aholi "xos kappa"⁴⁵, qo'ng'irotlar esa, "chum"⁴⁶ deb ataganlar.

Surxon vohasida yuz (juz) larning o'tov va kapaga nisbatan keng tarqalgan asosiy turarjoylaridan biri lochiq hisoblangan⁴⁷. Lochiq turarjoy sifatida turkiyalik yuruklarda⁴⁸, ozarbayjonlarda⁴⁹ qolaversa, qirg'iz⁵⁰ va turkmanlarda⁵¹ ham bo'lgan.

Tadqiqotda Surxon vohasida yuz (juz) larning uy-joylari doimiy va mavsumiy-vaqtinchalik turarjoylardan iborat bo'lgan. Doimiy turarjoy esa uy tomi dastlab paxsa, xom g'isht, guvala, ya'ni "bo'ri kalla", "shapati", tog'li hududlarda tosh devorlardan iborat bo'lgan. Dastlab bir xonali uylar, ikki xonali uylar hamda XX asr boshlariga kelib "xo'rjin tom", ya'ni uch xonali uylar, bolaxonali uylar qurilgan.

XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmida Surxon vohasida yuz (juz) larning turarjoylari taraqqiyotiga etnoijtimoiy jarayonlar ham ta'sir qilgan. Mazkur jarayonlar birinchi navbatda o'lkada ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan. Aynan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar voha aholisi an'anaviy turarjoylarining o'ziga xos transformatsiyalashuviga sabab bo'lgan. Transformatsion jarayonlar ko'proq aholi badavlat qatlamining turarjoylarida o'z aksini topgan.

O'zbek xalqining ananaviy kiyimlari va taqinchoqlari moddiy madaniyatning mushtarak bir qismini tashkil etib, xalqimizning milliy xususiyatlari, urf odatlari hamda estetik didini namoyon etgan. Boshqa xalqlar kiyimlari singari o'zbeklarning ananaviy kiyimlari uzoq tarixiy jarayonlar davomida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda urf-odat, marosim, an'analar tasirida davrlar o'tishi davomida o'ziga xos xususiyatda shakllanib, rivojlanib kelgan. Rus elshunos olimasi O.A.Suxareva ta'biri bilan aytganda: "Kiyimning yuzaga kelishi va turlarining ko'payishida kishilarning

⁴³O'zbekiston hududida miloddan oldingi ikkinchi asrda ham qamish chaylalarida aholi yashagan. *Qarang*: Shoniyozov K.Sh. Qang' davlati va qang'lilar. –Toshkent, 1990. –B.106-107.

⁴⁴Dala yozuvlari 2020 yil. Oltinsoy tumani Ipoq, Qarluq qishloqlari.

⁴⁵Dala yozuvlari. 2019 yil. Sho'rchi tumani Oqtumshuq qishlog'i.

⁴⁶Dala yozuvlari. 2019 yil Qumqo'rg'on tumani Mo'nka qishlog'i.

⁴⁷Dala yozuvlari. 2019-2020 yillar.

⁴⁸Еремеев Д.Е. Происхождение юриков и туркмен Турции и основные этапы их истории // ТИЭ. –М., 1963. Т. 83. –С. 40.

⁴⁹Кулиева М.В. Кибитка на яйлачах тюрок Казахского уезда // Изд. Об-ва обследования и изучения Азербайджана. –Баку. –1927. –№5.

⁵⁰Антипина К.И. Особенности материальной культуры южных Киргизов. –Фрунзе, 1963. –С. 166.

⁵¹Борозна Н.Г. Материальная культура узбеков Бабатага и долины Кафирнигана // Материальная культура народов Средней Азии и Казахстана. –М., 1966. –С. 100.

yashash tarzi, mehnati va iqlim sharoitidan tashqari, ularning madaniy rivojlanishi, estetik didlarining o'sishi ham asosiy omillardandir"⁵².

Surxon vohasida yuz (juz) larida kiyim-kechaklar uchun zarur bo'ladigan matolar asosan uy sharoitida tayyorlangan. XX asrning boshlariga qadar Vaxshivor, Sangardak, Sho'rchi, Qarluq kabi hududlarda teriga ishlov berib, bosh, ustki va oyoq kiyimlar hamda shu kabi boshqa kiyimlar ishlab chiqarish o'ziga xos tarzda rivojlangan⁵³. Tarixiy-etnografik adabiyotlardan ma'lumki, Surxon vohasida yuz (juz) larning milliy kiyimlarining taraqqiy etib, o'zgarib borishi doimiy jarayon bo'lsa-da, lekin kiyim-kechaklardagi jiddiy burilishlar XIX asr so'nggi choragida va XX asrda yuz bergan. Surxon vohasida yuz (juz)larning an'anaviy kiyimlarining transformatsiyasini maxsus tadqiq qilgan S. Davlatovning yozishicha, bu davrda bir tomondan, O'zbekiston hududida sodir bo'lgan turli tarixiy jarayonlar, xususan, o'zbeklar turmush tarziga rus va Yevropa madaniyatining jadal kirib kelishi mintaqa xalqlarining ma'naviy hayotiga sovet mafkurasining majburan joriy etilishi bilan birga texnika taraqqiyotidagi qator o'zgarishlar ham milliy kiyimlarning tikilishi, bichimi, shakli va kiyimlar uchun ishlatiladigan mato turlari hamda mato tayyorlash texnologiyasining jiddiy o'zgarishiga olib kelgan⁵⁴.

Surxon vohasida yuz (juz) larning engil kiyimlaridan biri ko'ylak bo'lib, ko'ylaklar o'yma yoqa, elka yoqa hamda kiftaki deb nomlanib, yoqalari qo'lda tikilgan hoshiyalar yoki jiyaklar bilan bezatilgan. Bo'yi tizzadan pastga tushirilgan bo'lib, englari keng hamda uzun bo'lgan⁵⁵.

Surxon vohasida yuz (juz) larning erkaklarning kiyim tagidan kiyadigan engil ich kiyimlaridan biri yaktak ko'ylakdir. Yaktak ko'ylakning yoqasi ichidan to'rtburchak shaklda qo'shimcha mato qo'yilib, oldi ochiq bo'lgan⁵⁶. Yengil kiyimlardan bo'lgan tik yoqali ko'ylak, uzun va keng englari, bo'yi hamda uzun old yoqasi bilan farq qilgan⁵⁷.

Surxon vohasida yuz (juz) larning belbog' qadimdan o'zbek va tojik xalqlari tomonidan e'zozlanib kelinadi⁵⁸. Belbog' erkaklar ust kiyimi, ya'ni chopon, jelak ustidan belga bog'lanadigan ro'mol bo'lib, bo'z, shoyi kabi matolardan kashtali hamda kashtasiz tikilgan. Belbog'ni vohaning Oltinsoy tumani Jobu, Qarluq, Ipoq, Qumpaykal qishloqlari ayrim aholisi "belqars" deb atagan⁵⁹. Surxon vohasida yuz (juz) larning chorvador aholisining jundan to'qilgan matolardan ham belbog'lari bo'lgan⁶⁰.

⁵²Сухарева О.А. Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии // ТИЭ. –М.-Л., 1954. Т. XXI. –С. 250-289.

⁵³Dala yozuvlari. 2019-2020 yillar. Sho'rchi, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo, Uzun tumanlari.

⁵⁴Davlatova S. Ko'rsatilgan asar. –B. 113.

⁵⁵Dala yozuvlari. 2020 yil Oltinsoy tumani Lo'kka, Bodihavo, qishloqlari; 2020yil. Uzun tumani Xo'jaasmin, Xavot qishloqlari.

⁵⁶Dala yozuvlari. 2020 yil Qumqo'rg'on tumani Jiydali, Jonbosh qishloqlari; 2020 yil. Sariosiyo tumani Tog'chion, Gazarak qishloqlari.

⁵⁷Dala yozuvlari. 2020 yil. Sho'rchi tumani Obodon, Shaldiroq qishloqlari; 2020 yil. Uzun tumani Chaqar, Beshkapa qishloqlari.

